

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI
JAHON ADABIYOTI VA QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK KAFEDRASI

**“SHARQ MUMTOZ POETIKASI
MUAMMOLARI:
NAVOIY VA RUMIY”**

*mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari
2025-yil, 22-aprel*

MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND
INNOVATIONS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
ALISHER NAVAI TASHKENT STATE UNIVERSITY
OF UZBEK LANGUAGE AND LITERATURE
DEPARTMENT OF WORLD LITERATURE AND
COMPARATIVE LITERATURE

*Proceedings of the international
scientific-theoretical conference titled*

**“ISSUES IN ORIENTAL CLASSICAL
POETICS: NAVO'I AND RUMI”**

April 22, 2025

Toshkent
“Nurafshon business”
2025

UO'K 845.711.05

KBK 133.585.3

“Sharq mumtoz poetikasi muammolari: Navoiy va Rumiy” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. – Toshkent: Nurafshon business, 2025. – 1016 b.

ISBN 978-9910-8871-6-1

Mas’ul muharrir:

Shuhrat Sirojiddinov,

filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Shuhrat Sirojiddinov (O‘zbekiston), Münevver Tekcan (Turkiya), Uzoq Jo‘raqulov (O‘zbekiston), Agnieska Vojta (Germaniya), Nozliya Normurodova (O‘zbekiston), Rukhsana Iftikhar (Pokiston), Almaz Ulviy (Ozarbayjon), Suvon Meli (O‘zbekiston), Sergey Nikonorov (Rossiya), Akibatxan Ismanova (Qirg‘iziston), Makpal Orazbek (Qozog‘iston), Aleksey Pilev (Rossiya), Nurboy Jabborov (O‘zbekiston), Shafiqa Yorqin (Afg‘oniston), Amir Ne‘mati Lima‘i (Eron), Nafas Shodmonov (O‘zbekiston), Rakymjan Turysbek (Kazakhstan), Dilmurod Quronov (O‘zbekiston), Gulnoz Xalliyeva (O‘zbekiston), Dilnavoz Yusupova (O‘zbekiston).

Sharq-islom madaniyatining ikki buyuk vakili – Alisher Navoiy va Jaloliddin Rumiy ijodi badiiyati, tarixiy-tipologik xossalarini ilmiy-nazariy tadqiq etishga qaratilgan “Sharq mumtoz poetikasi muammolari: Navoiy va Rumiy” mavzuidagi mazkur konferensiya materiallari ulkan geografik ko‘lami, tipologik talqinlari, tahliliy xulosalari bilan o‘ziga xosdir. To‘plam to‘rt bo‘limdan tashkil topgan. Har bir bo‘lim o‘zicha mustaqil ilmiy muammoni aks ettirishi bilan birga, Navoiy va Rumiy poetikasi sathida o‘zaro umumlashadi, jahon adabiyoti, qiyosiy adabiyotshunoslik, tarixiy hamda nazariy poetika, hozirgi adabiy jarayon muammolarini aks ettirishi bilan ma’naviy-ma’rifiy, badiiy-estetik ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy to‘plam adabiyot nazariyasi, adabiy tanqid, adabiyot tarixi, qiyosiy adabiyotshunoslik, tarjima nazariyasi, tarjimashunoslik bilan shug‘ullanayotgan doktorant, tayanch doktorantlar; magistrant va bakalavriyat bosqichi talabalari, shuningdek, badiiy adabiyot masalalari bilan qiziquvchilar uchun mo‘ljallangan.

To‘plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ilmiy-texnik kengashining 2025-yil 3-apreldagi yig‘ilishi qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

**Mualliflar qarashlari tahririyat nuqtayi nazaridan
farqlanishi mumkin.**

© “Nurafshon business”, 2025.

UDC 845.711.05

KBK 133.585.3

Proceedings of the International Scientific-Theoretical Conference on the topic "Issues in Oriental Classical Poetics: Navoi and Rumi" – Tashkent: Nurafshon Business, 2025. – 1016 pages.

ISBN 978-9910-8871-6-1

Editor-in-Chief:

Shuhrat Sirojiddinov,

Doctor of Philological Sciences, Academician

Editorial Board:

Shuhrat Sirojiddinov (Uzbekistan), Münevver Tekcan (Turkiye), Uzoq Jo'raqulov (Uzbekistan), Agnieszka Wojta (Germany), Nozliya Normurodova (Uzbekistan), Rukhsana Iftikhar (Pakistan), Almaz Ulviy (Azerbaijan), Suvon Meli (Uzbekistan), Sergey Nikonorov (Russia), Akibatkhon Ismanova (Kyrgyzstan), Makpal Orazbek (Kazakhstan), Aleksey Pilev (Russia), Nurboy Jabborov (Uzbekistan), Shafiqo Yorqin (Afghanistan), Amir Ne'mati Lima'i (Iran), Nafas Shodmonov (Uzbekistan), Rakymjan Turysbek (Kazakhstan), Dilmurod Quronov (Uzbekistan), Gulnoz Khal-liyeva (Uzbekistan), Dilnavoz Yusupova (Uzbekistan).

The present conference proceedings, titled "Issues in Oriental Classical Poetics: Navoi and Rumi" focus on the scholarly and theoretical exploration of the artistic, historical, and typological dimensions of the works of two eminent figures of Eastern-Islamic culture – Alisher Navoi and Jalaluddin Rumi. With its broad geographical scope, comparative perspectives, and analytical insights, the collection offers a unique contribution to the field. The volume is organized into four sections. Each section explores a distinct scholarly issue while also highlighting the shared poetic features and mutual influences in the works of Navoi and Rumi. The discussions extend to themes in world literature, comparative literary studies, historical and theoretical poetics, and contemporary literary discourse, contributing to both intellectual and aesthetic understanding.

This collection is intended for doctoral and postgraduate researchers, as well as master's and undergraduate students in fields such as world literature, literary theory, literary criticism, comparative literature, translation theory, and translation studies. It may also be of interest to anyone engaged in the study of artistic literature.

The publication was recommended by the Scientific and Technical Council of Alisher Navoiy Tashkent State University of Uzbek Language and Literature on April 3, 2025.

The views expressed in the articles do not necessarily reflect those of the editorial board.

© "Nurafshon business", 2025.

MUNDARIJA

1.	<i>Shuhrat SIROJIDDINOV.</i> IKKI BUYUK – IKKI TURK (<i>Kirishso'z ornida</i>)	15
 I SHO'BA NAVOIY VA RUMIY: BADI'YAT VA TIPOLOGIYA 		
2.	<i>Узоқ ЖЎРАҚҲҲОВ.</i> МУМТОЗ ПОЭТИКАДА “ИДЕАЛ ОБРАЗ” МУАММОСИ	20
3.	<i>Қозоқбой ЙЎЛДОШ.</i> “ЛАЙЛИ ВА МАЖНУН” ДОСТОНИДА РУҲИЯТ ТАСВИРИ	48
4.	<i>Сувон МЕЛИ.</i> “ХАМСА”ДА МУАЛЛИФ “МЕН”И	57
5.	<i>Gulnar Agig JAFARZADE.</i> THE INFLUENCE OF RUMI ON ALISHER NAVAI'S PERSIAN RUBAIYAT	68
6.	<i>Münevvər TEKCAN.</i> ALI SHIR NAVA'I'S IMPACT ON THE TIMURID RENAISSANCE	79
7.	<i>Сергей НИКАНОВ.</i> К ВОПРОСУ О ФУНКЦИОНАЛЬНОЙ ЗНАЧИМОСТИ ЭПИТЕТОВ В СБОРНИКЕ “СОКРОВИЩНИЦА МЫСЛЕЙ” АЛИШЕРА НАВОИ	90
8.	<i>Мақсуд АСАДОВ.</i> НАВОИЙ АСАРЛАРИДА ИЖОД ВА ИЖОД АҲЛИ ТАЛҚИНИ	99
9.	<i>Шоира АҲМЕДОВА.</i> АЛИШЕР НАВОИЙ ВА ЖАЛОЛИДДИН РУМИЙ МАКТУБЛАРИ ҲАҚИДА	107
10.	<i>Гулноз ХАЛЛИЕВА, А. ЮСУПОВА.</i> ЕВРОПАДА РУМИЙШУНОСЛИК ВА СУЛТОН ВАЛАДНИНГ БУЮК БРИТАНИЯДА САҚЛАНАЁТГАН АСАРЛАРИ ХУСУСИДА	116

	<i>Оразбек МАҚПАЛ, Айнұр АНАПИНА.</i>	
11.	ӘДЕБИЕТТЕГІ ИНТЕРМӘТІНДІЛІК: АБАЙ ШЫҒАРМАЛАРЫНЫҢ ӘЛІШЕР НАУАИМЕН САБАҚТАСТЫҒЫ	121
	<i>Сайфиддин РАФИДДИНОВ.</i>	
12.	НАВОЙИ ВА РУМИЙ ИЖОДИНИНГ ҚИЁСИЙ ЎРГАНИШ МАММОЛАРИ	128
	<i>Dilnavoz YUSUPOVA.</i>	
13.	MAVLONO JALOLIDDIN RUMIY VA ALISHER NAVOIY ASARLARIDA SAMARQAND TALQINI	137
	<i>Илҳом ҒАНИЕВ.</i>	
14.	ЖАЛОЛИДДИН РУМИЙ ВА АЛИШЕР НАВОЙИ АСАРЛАРИДА ИНТЕРТЕКСТУАЛЛИК	146
	<i>Islamjon YAKUBOV.</i>	
15.	JALOLIDDIN RUMIY MEROSI VA ZAMONAVIY O'ZBEK ROMANCHILIGI	153
	<i>Gulbahor ASHUROVA.</i>	
16.	TARIXIY SHAXS TASVIRI: NAVOIY OBRAZI	162
	<i>Qahramon TO'XSANOV, Muhammadamin JURAQULOV.</i>	
17.	RUMIY VA NAVOIY IJODIDA ILM-MA'RIFAT TALQINI	170
	<i>Mahmadiyor ASADOV.</i>	
18.	HOMO POETIKUS KONSEPSIYASI: NAVOIY VA RUMIY	174
	<i>Sobit AVEZOV.</i>	
19.	BOQIYLIKKA DAXLDOR BITIKLAR	174
	<i>Адҳамбек АЛИМБЕКОВ.</i>	
20.	АЛИШЕР НАВОЙИНИНГ ТУРКИЯЛИК ШОГИРДИ	182
	<i>Насиба БОЗОРОВА.</i>	
		187
21.	ҲАЗРАТИ МАВЛОНОНИНГ “МАЖОЛИСИ САБЪА” (“ЕТТИ МАЖЛИС”) АСАРИДА НАЪТ	191
	<i>Yulduz ZIYAYEVA.</i>	
22.	“OSHIQ-MA'SHUQA-RAQIB” OBRAZI GENEZISI	198
	<i>Olmos XURRAMOV.</i>	
23.	ALISHER NAVOIYNING “HOLOTI PAHLAVON MUHAMMAD”DA TARIXIY HAQIQAT IFODASI	205
	<i>Hasamuddin HAMDARD.</i>	
24.	AMIR ALISHER NAVOIYNING HEROT MAKTABINING TUSHUNCHALARINI TEMURIYLAR SIYOSATIGA O'TKAZISHDAGI ROLI	210

25.	<i>Leyla HƏSƏNOVA.</i> AZƏRBAYCAN ƏDƏBİYYATINDA ROMANTİZM	220
26.	<i>Marifat RAJABOVA, Madina IBOTOVA.</i> RUMİY VƏ NAVOIY LIRIKASIDA KÖ'NGİL METAFORASI	226
27.	<i>Sherxon QORAYEV.</i> MAVLAVİY "GİRDİ DARVESHLAR"NING RAQSU SAMO' MAJLISLARI	231

II SHO'BA SHARQ ADABIYOTIDA POETIKA MUAMMOLARI

28.	<i>Улугбек ХАМДАМ.</i> ГЛОБАЛ ДУНЕДАГИ ЙЎЛЧИ ЮЛДУЗЛАР	244
29.	<i>Zafer TOPAK.</i> ALİ ŞİR NEVÂÎ'NİN TÜRKÇE DİVANLARINDAKİ ŞİİRLE İLGİLİ BENZETMELER VE BUNLARIN ŞAİRİN POETİKASINA KATKILARI	254
30.	<i>Gulnoz XALLIYEVA, Adiba MA'DIYEVA.</i> ZAMONAVİY O'ZBEK VA NEMIS SHE'RIYATIDA BAHOR OBRAZINING BADIİY TALQINI	266
31.	<i>Dilrabo QUVVATOVA.</i> MUMTOZ POETIKADA MASNAVIYGA OID QARASHLAR TALQINI	275
32.	<i>Вусала НАСИБОВА.</i> КОМПЛЕКС НОВРУЗОВСКИХ ОБРЯДОВ В АЗЕРБАЙДЖАНСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ	279
33.	<i>Диляра ХАЛИЛОВА.</i> К ВОПРОСУ О МЕЖКУЛЬТУРНОМ ПОТЕНЦИАЛЕ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ТЕКСТОВ НАВОИ И ПУШКИНА В ПРЕПОДАВАНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА	285
34.	<i>Оразбек МАҚПАЛ, Әнуар ЗЕРДЕ.</i> НҮРЛАН МӘУКЕНҰЛЫ ШЫҒАРМАШЫЛЫҒЫ ЖӘНЕ АБАЙ ДӘСТҮРІ	289
35.	<i>Олим ОЛТИНБЕК.</i> РАУФ ПАРФИ ШЕЪРЛАРИНИНГ ВАЗН ХУСУСИЯТЛАРИ	297
36.	<i>Farhad RAHİMİ.</i> FERAĞÎ'NİN MİFTAHU'L-LÜGAT SÖZLÜĞÜNÜN DÜZENİ VE EL YAZMASI ÜZERİNE	312

37.	<i>Orzigul HAMROYEVA.</i> QOʻFIYAGA OID BIRLIK LARNING QIYOSIY TAHLILI	325
38.	<i>Ainisa AKMATOVA, Makhlie NAZAROVA</i> THE SPECIFIC PECULIARITIES OF THE EMAGE "WOMAN" IN THE EPIC MANAS AND IN ALISHER NOVOIY'S WORKS	333
39.	<i>Тоғжн НОРОВ.</i> АЛИШЕР НАВОИЙ БОРЛИҚ ФАЛСАФАСИДА КОСМОС, МАКОН ВА ЗАМОН ТАЛҚИНИ	341
40.	<i>Rustam SHARIPOV.</i> MAHMUDHO'JA BENBUDIY VA ABDURAUF FITRATNING MILLIY DAVLATCHILIK HAQIDAGI QARASHLARI	353
41.	<i>Feruza BURXANOVA.</i> BADIY SO'Z JILOSI	370
42.	<i>Ольга ЧИЖИКОВА, Ирина ЯНОВСКАЯ.</i> ЧЕРТЫ КОСМИЗМА В СТИХОТВОРЕНИИ НИКОЛАЯ КЛЮЕВА "БЕЛАЯ ИНДИЯ" И В НЕКОТОРЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ВОСТОЧНЫХ АВТОРОВ	377
43.	<i>Komiljon HAMROYEV.</i> SHARQ NIKOYATLARINING TIPOLOGIK XUSUSIYATLARI	386
44.	<i>Ѓилуффар УМАРОВА.</i> УЛЖАС СУЛАЙМООНОВ ШЕЪРИЯТИ	393
45.	<i>Zebiniso BEKMURADOVA.</i> PAREMIYADA XIAZM	399
46.	<i>Азамат ХАЙРУЛЛАЕВ.</i> НОРМУРОД НОРҚОБИЛОВ ҲИКОЯЛАРИДА ОНОМАСТИКА	404
47.	<i>Салават АЮПОВ.</i> ОТЗВУКИ РУССКОЙ КЛАССИКИ В ЧЕХОВСКОМ ЭТЮДЕ "БЕЗНАДЕЖНЫЙ"	422
48.	<i>پوهنيار امرالله محمدي</i> بررسی زبان شناسانه استعاره مفهومی عشق در اشعار فارسی نوایی	429
49.	<i>Tozagul MATYOQUBOVA.</i> G'AFUR G'ULOM SHE'RIYATIDA LIRIK QAHRAMON VA KECINMANING POETIK IFODASI	437
50.	<i>Ирина ЯНОВСКАЯ, Ольга ЧИЖИКОВА.</i> СКУЛЬПТУРНЫЕ ОБРАЗЫ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ А.С.ПУШКИНА	445

51.	<i>Шохрат Нусрат МАМЕДОВА.</i> ЭТНОКУЛЬТУРНАЯ СЕМАНТИКА ДЕТСКИХ ДРАМ МИРВАРИД ДИЛЬБАЗИ	453
52.	<i>Umida ABDULLAYEVA.</i> "SHAYX SAN'ON" QISSASIDA USTOZ-SHOGIRD MASALASI	466
53.	<i>Yorqinoy NASIRDINOVA.</i> ALISHER NAVOIY OBRAZI FRANSUZ ADABIY VA TARIXIY TAFAKKURIDA	470
54.	<i>Sayid Nurulloh AMINYOR.</i> ALISHER NAVOIY MA'RIFATNING PORLOQ QUYOSHI	478
55.	<i>Otabek BABAYEV, Munisa BOLTAYEVA.</i> ÜBERSETZUNGSMETHODE VON TECHNISCHEN TEXTEN	491
56.	<i>Нуриддин УБАЙДУЛЛАЕВ.</i> "ТАНАЗЗУЛ" РОМАНИДА МУСУЛМОНҚУЛ МИНГБОШИ ОБРАЗИ	496
57.	<i>Matluba MAMADIYAROVA.</i> "ALPOMISH" VA "BEOVULF" EPOSLARIDA AYOL FENOMENI	503
58.	<i>Mahbuba QARSHIYEVA.</i> ALISHER NAVOIY: MATNSHUNOSLIK VA MANBASHUNOSLIK	508
59.	<i>Feruza SAPAYEVA.</i> MAXTUMQULI ASARLARINING TURKIY TILLARDAGI TARJIMALARI VA ULARNING TADQIQI	514
60.	<i>Bahor SHUKUROVA.</i> BADIIY ADABIYOTDA RAMZIY OBRAZLAR TALQINI	522
61.	<i>Nodira SAIDOVA.</i> "NAVOIY VA ILOHIYOT"DA "GERMENEVTIK DOIRA"DAN FOYDALANISH	530
62.	<i>Sevinchoy YOQUBOVA.</i> XX ASR BOSHLARI O'ZBEK SHE'RIYATINING YANGILANISH OMILLARI	534
63.	<i>Нилуфар ДИЛМУРОДОВА.</i> АСАД ДИЛМУРОД ЭССЕЛАРИНИНГ ГЕНЕТИК АСОСЛАРИ, УЛАРДА МУАЛЛИФ ИФОДА УСЛУБИ ВА БАДИИЙ- ЭСТЕТИК КОНЦЕПЦИЯСИ	541
64.	<i>Nodira XUDOYNAZAROVA.</i> JALOLIDDIN RUMIY VA ALISHER NAVOIY JAHON ADABIYOTI KONTEKSTIDA	547

65. *Maftuna NORQULOVA.*
**"HALI HAYOT BOR..." QISSASIDA QAHRAMON
 KONSEPSIYASI** 552
66. *Dilnavoz BOYZOQOVA.*
"YUSUF VA ZULAYHO" QISSASIDA OBRAZ TALQINI 560
67. *Махфуззоҳон ХОМИДОВА.*
"БАДОЙИЪ УЛ-БИДОЯ" ДА ИНТЕРТЕКСТУАЛЛИК 568

III SHO'BA NAVOIY VA RUMIY IJODIDA MA'RIFAT VA MILLIYAT MASALALARI

68. *Nafas SHODMONOV.*
**"LAYLI VA MAJNUN" DOSTONI SYUJETI VA G'OYASINI
 SHAKLLANTIRGAN BA'ZI OMILLAR** 578
69. *DR. KEMAL YAVUZ ATAMAN.*
**OSMANLI DEVLETİ'NİN MANEVİ VE HAKİKİ MÜESSİSİ
 MEVLÂNÂ CELÂLEDDİN-İ RÛMÎ** 584
70. *G'ayrat MURODOV, Shahlo SA'DULLAYEVA.*
MURSHID VA MURID MUNOSABATI 592
71. *Нусратулло ЖУМАХЎЖА.*
**ЖАЛОЛИДДИН РУМИЙ "МАСНАВИЙИ МАЪНАВИЙ"
 АСАРИНИНГ КИРИШ ҚИСМИ МАЗМУНИГА ЧИЗГИЛАР** 602
72. نویسنده: پروفسور دکتر فضل الرحمن فقیہی هروی
 نقش امیر علیشیر نوابی در تمدنآفرینی دوره تیموریان هرات 607
73. *Darmonoy O'RAYEVA.*
**RUMIY VA HOZIRGI O'ZBEK SHOIRLARI IJODIDA DUNYO
 TA'RIFI** 619
74. *Ulkar BAKHSHIYEVA.*
**THE ARTISTIC-AETHETIC FEATURES OF THE
 MYTHOLOGICAL APPROACH IN NIZAMI GANJAVI'S POEM
 "ISKANDARNAME" (IN THE CONTEXT OF LEGENDS
 RELATED TO KHIDR)** 624
75. بشیر احمد قرداش
 هصالح 634
76. *Odiljon AVAZNAZAROV.*
NAVOIY DOSTONLARIDA "QADAM" METAFORASI 642

	<i>Toji NOROV.</i>	
77.	ALISHER NAVOIY FALSAFIY MEROSINING ILOHIY-MA'RIFIY VA MAFKURAVIY ASOSLARI	649
	<i>Saodat MUMINOVA.</i>	
78.	AQL VA IDROK O'RTASIDAGI MUVOZANAT	662
	<i>Мустафа БАЙЭШАНОВ.</i>	
79.	“ПЯТЕРИЦА” НАВОИ В СОКРОВИЩНИЦЕ МИРОВОЙ ЛИТЕРАТУРЫ	667
	<i>زینب نوروز علی ؛ شادمحمد سہاک</i>	
80.	جایگاه عقل در اشعار امیر نظام الدین علیشیر نوایی	671
	<i>Usmon QOBILOV.</i>	
81.	ON THE INTERPRETATION OF THE TRUE OF HUMANITY AND THE UNIVERSE IN ARTISTIC CREATIVITY	678
	<i>دکتر نورالرحمن ناصح</i>	
82.	انسان کامل و انسان شناسی از نظر علی شیر نوایی و مولانا با رویکرد تطبیقی	687
	<i>Адҳамбек АЛИМБЕКОВ.</i>	
83.	АЛИШЕР НАВОИЙ ҲАҚИДА ТУРК ДОСТОНИ	693
	<i>Hamza ATEŞ, Kemal ATAMAN.</i>	
84.	MAVLONO JALOLIDDIN RUMIY ASARLARIDA IJTIMOİY O'ZGARISHLAR	700
	<i>Мавжуда НУРИДДИНОВА.</i>	
85.	“БОР КИТОБИ, ЛЕК ПАЙҒАМБАР ЭМАС...”	710
	<i>Shohista NIYOZOVA.</i>	
86.	MILLIY QADRIYATNING TAMAL TOSHI	720
	<i>Duygu KOCA.</i>	
87.	ALİ ŞİR NEVÂÎ'NİN ESERLERİNDE AHLAKİ DEĞERLER	727
	<i>Iroda ISHONXANOVA.</i>	
88.	XX ASR 40-YILLARIDA NAVOIYSHUNOSLIK	734
	<i>Ойдин ТУРДИЕВА, Ойша ШУКУРОВА.</i>	
89.	РУМИЙ ҒАЗАЛЛАРИДА ТИНЧЛИК ҒОЯСИ ТАЛҚИНИ	734
	<i>Nargiza SHOALIYEVA.</i>	
90.	RUMIY VA NAVOINING ISHQQA OID QARASHLARI	741
		747

IV SHO'BA
NAVOIY VA RUMIY
YOSH TADQIQOTCHILAR TALQINIDA

91.	<i>Malika SUYUNOVA.</i> HAMZA VA XALQ TEATRI	766
92.	<i>Laylo TO'YCHIYEVA.</i> "ULISS" ROMANIDA TRAGIK VAZIYAT XRONOTOPI	772
93.	<i>Nilufar HAITOVA.</i> HAMID OLIMJON – NAVOIYSHUNOS	777
94.	<i>Shaxnoza TURSUNOVA.</i> SIZIF OBRAZI: TURFA TALQINLAR	781
95.	<i>Madina VAHOBOVA.</i> "NAVOIY KIRMAGAN UYLAR QORONG'U"	786
96.	<i>Sayohat ARZIQULOVA.</i> FATMA SHENGIL SUZAR IJODIDA RUMIY AN'ANALARI	794
97.	<i>Osiyo SIDDIQOVA.</i> KOMIZM XUSUSIDA BIR-IKKI SO'Z	802
98.	<i>To'lg'anoy QULJANOVA.</i> ASQAR MAHKAM IJODIDA RUMIYONA OHANGLAR <i>Sabinabonu BERDIYEVA.</i>	810
99.	"ADABIYOTSHUNOSLIK LUG'ATI"NING ELEKTRON MOBIL ILOVASINI YARATISH XUSUSIDA	815
100.	<i>Huriniso MENGLIYEVA.</i> DUNYONING AZALIY SAVDOSI	819
101.	<i>Баҳодур ЖОБЛИЕВ.</i> УНИВЕРСАЛ ОБРАЗЛАР КЎЛАМИ	825
102.	<i>Zilola JO'RAYEVA.</i> NAVOIY VA RUMIY ASARLARIDA TASAVVUF TIMSOLLARI	829
103.	<i>Diyora O'KTAMOVA.</i> ALISHER NAVOIY FARDLARINING O'RGANILISHI	834
104.	<i>Hediye Zeynep KÖŞEK.</i> ALİ ŞİR NEVÂİ VE MEVLÂNÂ CELÂLEDDİN RUMÎ'NİN ESERLERİNDE TAKVÂ	839
105.	<i>Selenay ŞAHİN.</i> ALİ ŞİR NEVÂİ VE MEVLÂNÂ'NIN SANATSAL VE DÜŞÜNSEL YAKLAŞIMLARININ MİMARİ ESERLER ÜZERİNDEKİ ETKİSİ: SOSYO-KÜLTÜREL BİR DEĞERLENDİRME	849

	<i>Nodirjon G'AFUROV, Shahnoza YO'LDOSHEVA.</i>	
106.	NAVOIY "XAMSA"SI VA RUMIY "NAYNOMA"SIDA "NAY" TIMSOLI	856
	<i>Noila ROXATALIYEVA.</i>	
107.	"DEVONA" VA "JUNUN" TUSHUNCHALARI TALQINI	861
	<i>Sema DÜLGAR.</i>	
108.	ŞAİR FÂTİMA HANIM VE KÜTAHYA MEVLEVÎHÂNESİNE ETKİLERİ	866
	<i>İrem ERDEM.</i>	
109.	ALİ ŞİR NEVAİ'NİN MUHAKEMETÜ'L-LUGATEYN ADLI ESERİNDE EŞANLAMLILIK	872
	<i>Dilfuza ISMOILOVA.</i>	
110.	"BİR AYOL HAYOTIDAN 24 SOAT" NOVELLASINING KOMPOZITSION TAHLILI	881
	<i>Beyza ÖZER.</i>	
111.	MÊKÂNDAN LÂMEKÂNA: ALİ ŞİR NEVAİ VE MEVLÂNÂ	888
	<i>Ahmet Berat COŞKUN.</i>	
112.	MUHÂKEMETÜ'L-LUGATEYN'DE GEÇEN İŞ/HAREKET BILDİREN FİİLLER VE BU FİİLLERİN KUZEYBATI/KIPÇAK TÜRK LEHÇELERİNDEKİ GÖRÜNÜMLERİ	897
	<i>Aziz NORQULOV.</i>	
113.	"NASOYIM" PINJIDAGI UMR	910
	<i>Saodat FAYZIYEVA.</i>	
114.	JADID MATBUOTIDA NAVOIY IJODI TADQIQI	916
	<i>Jobir ISMATILLOYEV.</i>	
115.	MUNIS IJODIDA NAVOIY AN'ANALARI	924
	<i>Dovud XO'JAQULOV.</i>	
116.	NAVOIY VA RUMIY IJODIDA SABR TUSHUNCHASI	930
	<i>Nazokat G'OFUROVA.</i>	
117.	BİLGAMISH – BUYUK SHARQNING QADIM DURDONASI	934
	<i>Nargiza SHAMIYEVA, Jazira TULEGENOVA,</i>	
	<i>Nargiza XOLBOBOYEVA.</i>	
118.	COMPARATIVE STUDY OF MEANING EXPANSION AND NARROWING OF QUALITATIVE ADJECTIVES IN ENGLISH AND UZBEK	938
	<i>Go'zal OMONOVA.</i>	
119.	JALOLIDDIN RUMIY HIKOYALARIDA XULQ-ATVOR MASALASI	944
	<i>Madina TURSUNOVA.</i>	
120.	MARLO VA SHEKSPIR: IJODIY PARALLELLAR VA FARQLAR	949

121.	<i>Shodiya TURSUNALIYEVA.</i> “ABU RAYHON BERUNIY” DRAMASIDA FOJIAVIY VAZIYATLAR TALQINI	952
122.	<i>Gulzoda SAFAROVA.</i> ERKIN A’ZAMNING “ANOYINING JAYDARI OLMASI” HIKOYASIDA IDILLIYAVIYLIK	957
123.	<i>Nozima KARIMOVA.</i> YOVUZ BAHODIR O’G’LINING “YONAYOTGAN BUXORO” ROMANIDA TARIXIY HAQIQAT	964
124.	<i>Suhrobjon ZIYODOV.</i> YOSHLAR SHE’RIYATIDA NAVOIYGA MUROJAAT	970
125.	<i>Sherzod USMONOV.</i> ZEBO MIRZO SHE’RIYATIDA METAFORIK OBRAZLAR	977
126.	<i>Нармин БАБАЕВА.</i> ЭТИОЛОГИЧЕСКАЯ СЕМАНТИКА МИФОЛОГИЧЕСКИХ ОБРАЗОВ	983
127.	<i>Yüsra KARACA.</i> HZ. MEVLANA’NIN YOLU VE HAT SANATI	993
128.	<i>Lobar BERDIYEVA.</i> SHAVKAT RAHMON SHE’RIYATIDA RAMZIYLIK	999
129.	<i>Gulsevar MAMANOVA.</i> “YUSUF VA ZULAYHO”: GENEZIS MASALASI	1006
130.	<i>Shahzoda VALIJONOVA.</i> NAVOIY E’TIROF ETGAN XAMSANAVIS	1014
131.	<i>Dilrabo HAYDAROVA.</i> O’ZBEK-TURK HIKOYALARIDA KOMIKLIK	1018
132.	<i>Saida DAVRONOVA.</i> ALISHER NAVOIY FAOLIYATINING O’ZBEKISTON KINOFOTOFONO MILLIY ARXIVI HUJJATLARIDA YORITILISHI	1022
133.	<i>Mirjalol SODIQOV.</i> “BUYUKLAR TUHFASI” – MUMTOZ ADABIYOT TARIXIGA DOIR TADQIQOT	1029
134.	<i>Muhayyo ISTAMOVA.</i> AYOL OBRAZI JOZIBASI	1036
135.	<i>Iroda ESHMURADOVA.</i> YANGI DARSLIKLAR HAQIDA	1041

136.	<i>Ruxsora UNAROVA.</i> AHMAD A'ZAM HIKOYALARIDA "JUMBOQ" TASVIRI	1048
137.	<i>Maftuna USMONOVA.</i> NAVOIYDA "SHOH" VA "GADO" TUSHUNCHALARI TALQINI	1052
138.	<i>Nigora TOSHMURODOVA.</i> FURQAT VA MA'RIFATPARVARLIK G'OYASI SHARIF YUSUPOV TALQINIDA	1057
139.	<i>Muxlisa ASHIRMATOVA.</i> NAVOIY VA RUMIY: MUSHTARAK DIDAKTIKA	1068
140.	<i>Dilnavoz NAJIMOVA.</i> MUMTOZ TURKIY ADABIYOTNI BOLALAR ONGIGA YETKAZISH AMALIYOTIGA DOIR	1074
141.	<i>Parvina NARZULLOYEVA.</i> XAMSA DOSTONLARIDA UCHRASHUV MOTIVINING O'RNI	1083
142.	<i>Roza QURBONOVA.</i> NAVOIY VA RUMIY ADABIY MEROSINING BOSHQA TILLARGA TARJIMASI VA CHET ELLARDA O'RGANILISHI	1090
143.	<i>Nigina FAYZULLAYEVA.</i> A.S.PUSHKIN VA F.M.DOSTOYEVSKIY ROMANLARIDA EPISTOLYAR JANRNING BADIY-ESTETIK FUNKSIYASI	1097
144.	<i>Ayşe ÖZTOKLU, Sümeyye ÇAĞLAR YILMAZ.</i> MEVLÂNÂ CELÂLEDDÎN RÛMÎ'NİN MESNEVÎ'SİNDE HZ. MUSA KISSASINDAN KESİTLER	1104

G'ayrat MURODOV,
filologiya fanlari doktori, professor¹,
Shahlo SA'DULLAYEVA,
BuxDU tayanch doktoranti
Doi. 10.52773/tsuull.conf.2025/HAZR3018

MURSHID VA MURID MUNOSABATI

Annotatsiya: Ushbu maqolada Jaloliddin Rumiyning “Masnaviy” va Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” asarlarida mualliflarning murshid (ustoz, pir) va murid (shogird) munosabati haqidagi qarashlarining aks ettirilishi va tariqat maqomlarini bosib o'tishda irshodning roli haqidagi fikrlari tadqiqqa tortilgan.

Kalit so'zlar: tasavvuf, pir, murshid, murid, komillik, tariqat

Abstract: This article briefly examines the reflection of the authors' views on the relationship between murshid (teacher, pir) and murid (student) in the works of Jalaluddin Rumi's “Masnavi” and Alisher Navoi's “Lison ut-tair” and their thoughts on the role of irshad in overcoming the statuses of the tariqa.

Keywords: sufizm, pir, murshid, murid, perfection, tariqat.

O'qituvchi har bir davrda ta'lim tizimining tamal toshi bo'lib kelgan. Ustoz shogirdlarini barkamol inson sifatida tarbiyalay olishi uchun, avvalo, o'zi komil inson bo'lishi lozim. Chunki u har qanday jamiyatda na'muna sifatida tan olinuvchi inson hisoblanadi. Mumtoz adabiyotimizning ajralmas qismi hisoblangan tasavvuf adabiyotida ham ustoz, pir, murshid, shayx obrazlari borki, ular chin ma'noda ibrat na'munasidir.

Pir yoki shayx ma'lum bir suluk yoki tariqat shahobchasining, soliklar jamoasining rahbari, peshvosi sanalganlar. “Faqrnoma”da: “...Har kim pirlik va shayxlik da'vosin qilur bo'lsa, qirq yil to pirning xizmatida yurmaguncha shayx o'rni anga ravo ermas. Agar murid olsa, rad turur...” [2. 218]. Shayxlik xirqasiga munosib ko'rilmagan solikning pirlik iddaosini qilishga ma'nan haqqi bo'lmagan.

Sharq mumtoz adabiyotida ustoz-shogirdlik munosabatiga alohida e'tibor bilan qaralgan. Bu fikr isbotini Jaloliddin Rumiyning “Masnaviyi ma'naviy”, Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” asarlarida yaqqol ko'rish mumkin.

1 e-mail: taraqqiyot21@mail.ru, e-mail: sh.a.sadulayeva.@buxdu.uz

Mavlono Rumiyning “Masnaviyi ma’naviy”sidagi birinchi daftarida alohida bir faslda purning sifatлари, unga itoat zarurligi haqida mulohazalar bayon etilgan. Ulug’ qalb sohibining yozishicha, pir yoz bo’lsa, xaloyiq qishdir, xalq qaro tun hisoblansa, piri komilga oy deb qarash lozim. Mazkur baytda qarshilantirish (tazod) san’ati vositasida ustoz shaxsiyati va ta’limining shogirdlar uchun nechog’lik ahamiyati borligi ta’kidlangan. Shuningdek, pir fazilatları “hamrozi yo’q durri yatim”, “eskigan may”, “eskigan zar” tashbihları orqali ham ko’rsatilgan. Faslda murshidning safar uchun ahamiyati xususida shunday deyiladi:

*Bo’lmasa pir, etma sen azmi safar,
Uchragay ofat, necha xavf-u xatar.*

*Garchi yo’l bosding yurib necha marta sen,
Rahnamosiz bir g’arib, oshuftasen.*

*Bas, u yo’lkim, yurmagaysen hech qachon,
Borma tanho. Bo’lma rahbarsiz ravon [3,96].*

Bir misralarda aytilgan **yo’l** ramziy ma’noda, u murid bosib o’tishi lozim bo’lgan ma’naviy-axloqiy kamolot bosqichlarini anglatadi. Shogird bu bosqichlarga ustozsiz qadam bosishi mumkin emas, chunki chin rahnamo bo’lmas ekan, xatokorlikka moyil inson adashishi, ko’zlangan manzilni topa olmasligi ayon. “Masnaviy”da obrazli tarzda aytilganidek, yo’lboshchi yo’lchi “boshiga soya tashlab turmasa”, bongi g’ul uni sargashta aylashi aniq bo’lib qoladi. “Bongi g’ul” – shaytoni lainning qutqusi, ustozdan ayru muridning qalbiga solgan shubha-gumonlardir: Tingla Qur’ondanki, so’ylar senga chin, Ne sitamlar etdi iblisi lain [3,97]. Insonning azaliy dushmani bo’lgan iblis, shoir yozganidek, insonlarni ko’p marta adashtirib, ularni yuz minglab balo-ofatlarga giriftor etgan. Shunday ekan, to’g’ri yo’l topish va ushbu safarda manzilga sog’-omon yetib borish uchun albatta yo’lchi rahbarga doimiy ehtiyoj bor.

Shayton insonni yo’ldan urishda birinchi galda uning nafsidan foydalanishga urinadi. Shu boisdan hazrat Ahmad Yassaviy hikmatlarida “Nafsni tepkil, nafsni tepkil, ey badkirdor” deb bejiz ta’kidlanmagan. Bunday nuqtai nazarning ilmiy-nazariy asosi Qur’oni Karimning “Yusuf” surasida mavjud, Unda: “Men

nafsimni oqlamayman. Chunki nafs agar Parvardigorimning O'zi rahm qilmasa albatta barcha yomonliklarga buyurguvchidir", – deyilgan [1]. Nafsning yomonligi biz tadqiq etayotgan badiiy matnning qayd etilgan faslida ham o'z ifodasini topgan. Bunda nafs istilohi eshak istiorasi vositasida tamsil qilingan: "Bas, eshak yo'l dushmani, masti alaf, Egasini o'ldirdi necha martalab. Bilmasang yo'lni eshakka sen nuqul. Teskari yo'l boski, bo'lgay to'g'ri yo'l... Hech qachon nafsingga sen do'st bo'lmagil, Chunki Olloh yo'lidin urguvchi ul [3,97]. Yuqorida keltirilgan pand-nasihat, ibratli o'gitlar pirning o'z shogirdlariga nasihati tarzida aytilyapti. Zero, "Masnaviyi ma'naviy"ning muallifining o'zi ham barkamol shayx, o'nlab sadoqatli shogirdlarning donishmand ustozlari edi.

Ustozning inson hayoti, kelajagi, biror-bir kasb-kor egallashda, shu sohada kamolot kasb etishidagi o'rni shu qadar muhimki, hatto ezgu niyatli kishilargina emas, yomonlik qutbini tanlagan kimsalar ham tanlagan yo'llarida sobit turishga ko'mak bera oladigan rahnamoga ehtiyoj sezadilar. Buni "Masnaviy"ning beshinchi daftaridagi faslda ifoda etilgan. Shahvati zo'r" bo'lganidan g'ayritabiiy buzuvchi yo'lni tanlagan cho'rining qilmishi xonadon bekasiga ma'lum bo'lgach, u o'zicha shunday yo'lni takrorlamochi bo'ladi, ammo niyatiga yetolmay sharmandali tarzda o'lim topadi. Bunday hol cho'ri tilidan shunday baholanadi:

*Ishni beustoz etishni istading,
Bo'ylakim, o'zni ajalga qistading.
Bilganing ul erdi ilmi notamom,
So'rmading yem qayda erdi, qayda dom [3,547].*

Yuqorida nazardan o'tkazilgan mazkur hodisa yaxshiga ham, yomonga ham ustozsiz ish qilish xatarli va besamar ekanligini ko'rsatish bilan bir qatorda yana bir karra nafsning ayanchli oqibatlariga olib kelishini ta'sirli ifodalagani bilan ham e'tiborga molik. Faslda aytilganidek: hirs och – ofat, mudom istaydi Kull, hirsni qo'ygil, ey fujul ibnul fujul [3, 347].

"Masnaviyi ma'naviy"da shogirdning ustozga bo'lgan munosabatida e'tiqodning ahamiyati ulkan ekanligi ko'rsatilgan. Adabiy durdonada bu haqda shunday deyiladi:

*Nur ila kelgan esa tolib agar,
Baski, bergay unga yolg'on ham samar [3, 77].*

Baytning ma'nosi shundaki, murid qalbida komil ishonch, ya'ni ilohiy haqiqatga teran muhabbat mavjud bo'lsa, shayxning soxtaligi ham uning imoniga zarar yetkaza olmaydi. Bu o'rinda shoir Sadriddin Salim Buxoriyning bir she'rida badiiy ifoda topgan rivoyatni eslash o'rinli deb o'ylaymiz. Ko'zlari so'qir odam ertayu kech Parvardigorga "ko'zlarimga nur ber", deb tavallo qilar ekan. Shayton uning ustidan kulmoqchi bo'lib, yoniga kelib: "Men robbingman, Tilaging mustajob bo'ldi", deydi. Shunda u odamning ko'zlari ochilib, olamni ko'ra boshlaydi. Talvasaga tushgan iblis bu kishiga o'zining shaytonligi, uni aldaganini aytadi. Odam esa "Mening ko'zlarimni sen emas, Tangrimga bo'lgan e'tiqod-ishonchim ochdi", – deb javob beradi. Shunga qaramay, mavlono Rumiy toliblarga ustoz tanlashda adashmaslik, faqat haqiqiy ilm va tiniq fitrat sohibini o'zlariga rahnamo sifatida tanlashni maslahat beradi. Bu haqda shoir shunday yozadi: "O'zi past, qanday baland tutgay seni, Ravshan etmas, ul qaro etgay seni. Ul qiron ostida ham nursiz magar, Bas, netib ul o'zgalarga nur berar?" [3,76]

Beshinchi daftarda ustoz bilan bog'liq yana bir fasl bo'lib, u qisqaligiga qaramay, g'oyat murakkab ilohiy-falsafiy nuqtai nazarlarni murakkab tarzda ifoda etgan. Nasriy sharhda bayon etilganidek, "shayxning muridlarga, payg'ambarning ummatlarga talqini oina ortida turib to'ti qushga so'z o'rgatmoqqa o'xshar. To'ti inson bilan ulfat tutinishni istamas, chunonchi muridlar ila ummatlar ham Haq talqiniga toqatsizdirlar" [3, 548]. Anglashiladiki, to'ti qush odamdan saboq olishni xohlamas ekan. Shu boisdan unga so'z o'rgatishda ro'parasiga ko'zgu qo'yilgan. Ko'zgu ortiga yashiringan odam qushga ayrim so'z va gaplarni takrorlab turadi. Bundan bexabar to'ti ko'zgudagi aksini boshqa bir hamjinsi deb o'ylab, uning aytganlarini takrorlashga urinadi va natijada gaplashishni bir qadar o'rganib oladi. Bunday qadimiy ta'lim usuli Rabbil olaminning bandalar bilan bevosita emas, bilvosita, ya'ni rasul va nabiylar orqali muloqot qilishi sababini anglatadi. Boshqa jonzotlar kabi maxluq bo'lib, ularga ko'p jihatdan o'xshaydigan inson Haq talqiniga bardosh bera olmaydi. Shu boisdan unga o'z jinsidan bo'lgan rahnamo, ya'ni payg'ambar zarur bo'ladi. O'z yaralmishining fe'l-atvorini mukammal bilgan Tangri taolo shu boisdan nuvubbat orqali o'z amru ko'rsatmalarini zarurat bo'lganda

bani odamga yetkazib turadi. Chin ustozlar ham nabiy-larga monanddir. Shu boisdan rasuli akram Muhammad Mustafo (s.a.v) islomiy allomalarni bani Isroil payg'ambarlariga qiyoslaganlar. Ustoz o'z shogirdlariga ilm o'rgatar ekan, muridlar bu haqiqatlarni bashar so'zlayotir, deb o'ylaydilar:

Chun murid ham o'ltirib o'trusida,

O'zni ko'rgaydir valiy ko'zgusida.

Lek o'shal suhbat aro bilmaydir ul,

So'ylaguvchi pir emasdir, Aqli Kull [3, 549].

Barcha ilmlar, mohiyat, haqiqat Ollohdandir. Pirning vazifasi ana shu bilimlarni shogirdlariga yetkazishdir. Murshid o'zi berayotgan ta'limning tub mag'ziga to'la-to'kis yeta olmaydi, chunki u banda, ya'ni qusurlidir. Xuddi shu sababga ko'ra mutafakkir Alisher Navoiy o'zining so'nggi dostoni muqaddimasida qayd etganidek, Yazdoni azal:

Aylagach doyir to'qiz aflokni,

Qosir etdi fahmidin idrokni [5, 7].

Shunga qaramay, hazratning boshqa bir dostonida qayd etilganidek:

Dedi: har ishki qilmish odamizod,

Tafakkur birla bilmish odamizod.

Ulum ichra manga to bo'ldi madhal,

Topilmas mushkule men qilmagan hal [4, 122].

Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" dostonida pir va murid munosabatlari masalasi qushlar vositasida ba'zan majoziy uslubda, ba'zan esa ulug' shayxlar bilan bog'liq tamsiliy hikoyatlarda teran badiiy talqin etilgan. Bu adabiy parchalarni ilmiy tahlil etish Navoiy dunyoqarashiga yaqinlashish nuqtayi nazaridan ham, undagi komil inson haqidagi muhim qarashlarini o'rganish nuqtayi nazaridan ham muhim. Qushlarning uzrxohligiga javoban Hudhudning nutqi badiiy talqinida pirga xos bo'lgan sifatlarni ko'rish mumkin. Avvalo, shuni ta'kidlash lozimki, qushlar dunyo savdolari bilan band bo'lgan insonlarning majoziy obrazi sanaladi, ularga Semurg' haqidagi xabarni yetkazgan Hudhudning so'zlari qushlarda Semurg' visoli uchun talab hosil qiladi. Demak, inson haq yo'lga kirishi uchun unda dastlab kuchli istak paydo bo'lishi kerak. So'ng ular o'zlariga rahnamo etib Hudhudni tanlashdi, chunki u boshqa qushlardan

yuqoriroq darajada edi, bu uzoq yo'l – nafsning ustidan g'olib kelish yo'li haqida boshqa qushlar uning kabi bilimga ega emas edilar. Navoiy asar syujetini bir tizmaga solish bilan bir qatorda, haqiqiy pir va sobit murid qanday bo'lishi kerakligini ham Hudhud tilidan bayon etadi. Chunonchi, qushlardan birining yo'l boshida Hudhudga "Sen va biz barchamiz bir jinsdanmiz, patlarimiz ham bir xil, ammo sen nima uchun yashirin sirdan xabardorsan?" – degan savoli Hudhud o'ziga ham payg'ambar, ham toj egasi bo'lgan Sulaymonning nazariga tushganligi sabab ekanini aytadi:

Kingakim aylar nazar ahli safo,

Ul nazar tufrog'ni aylar kimyo [5.128].

Shu so'zlar isboti uchun misol tariqasida Shayx Najmiddin Kubroning so'zi va itga tushgan ko'zi haqidagi hikoyat keltiriladi. Demak, kimgaki xos kishilarning nazari tushsa, ularning ulug' martaba erishishlari it obrazi misolida nihoyatda ta'sirli badiiylashtirgan. Bu yerda pir, avvalo, Tangri yoki Uning nazari tushgan xos kishining marhamatiga sazovor bo'lgan inson bo'lishi kerakligi nazarda tutilgan. Qushlardan yana biri Hudhudga umri davomida ko'p gunoh ish qilgani, hayoti jirkanch ishlar bilan o'tgani bayon etib, o'zining shu holi bilan Semurg'day pok zotga erishishga noloyiq ekanidan noliydi. Ko'rinmoqdaki, unda o'z qilmishlaridan pushaymonlik holi kuzatiladi. Shunda Hudhud (pir) bu qushga har bir inson gunohdan xoli emasligini, ammo ko'ngilni umidsizlikka duchor etmaslik lozimligidan xabar beradi va barcha gunohlardan qutulishning yagona yo'li tavba ekanligi ulug' shoir tomonidan Hudhud tilidan quyidagicha badiiy ifodalanadi:

Jurmdin ulkim yuzi bo'lg'ay sarig',

Tavba aylar ul sarig'lig'ni orig',

Bahri rahmat mavjga kirgan zamon,

Pok o'lursan men kibi yuz ming ravon [5,133].

"Agar kimning yuzi gunohdan sariq bo'lsa, tavba uni bu sariqlikdan xalos etadi. Rahmat dengizi mavjlangan paytda sen ham xuddi men kabi ming marta pok bo'lasan", – deydi Hudhud. Anglashilmoqdaki, pir o'z muridining ko'nglidagi umidsizlikni yo'q qilishi uchun uni tavbadan najot topa olishiga ishontirishi kerak, zero, Hudhudning degani kabi uning o'zi ham qachonlardir tavba eshigini qoqqan. Tasavvufda tariqatlaridagi dastlabki qadam kuchli

xohish va avvalgi gunohlardan poklanib tavba qilish bo'lsa, pir bu tamoyilga rivoya etib, o'z muridining kamoloti uchun uni tavba sari undamog'i kerak.

Yana bir qush (tolib, murid) shunday shikoyat qiladi: "Tabiatimda o'zgaruvchanlik mavjud. Bir kun taqvodor bo'lsam, bir kuni aksiman, barqaror emasman". Hudhud bu sifat barchaning zotida borligini aytadi. Buning sababi esa nafs va ruhdir, ulardan biri tizginni olsa, ikkinchisining zaiflashishini ma'lum qiladi. Kishidagi bunday o'zgaruvchanlikka chorani murshid, ya'ni pir topadi, deydi. Chunki:

Bo'yla illatlatg'a murshiddur tabib,

Kim xaloyiq pir derlar, ey labib...

Pir har biriga qilur nav'e davo,

Kim borib illat, topar tolib shifo [5,136].

Pir muridning bu nuqsoniga riyozat chekishni davo qilib qo'yadi. Oqibatda shogirdning nafs sinadi va ruhoniyyat baland keladi. Asarning shu qismidan so'ng fikr dalili sifatida Shayx Abu Turob Naxshabiy haqidagi tamsiliy hikoyat keltiriladi. Shayx Naxshabiy bir muridining holiga nazar solib, uning qimmatbaho kiyimlarga o'ch ekanini ko'radi. Pir ko'p bora bu muridga nasihat qilsa-da, so'zlari kor qilmaydi. Oxir-oqibat pir muridning yomon nafs daf bo'lgunga qadar uni mol so'yiladigan kushxonaga olib borib tashlashni buyuradi. Shundan so'ng bir savat qo'yning ichki a'zolari va axlatlarini boshi uzra mahkam ushlab turishini talab etadi. Muridning ust-boshi iflos bo'lgach, Nasaf bozorini shu holatda kezib chiqishni buyuradi. Bir necha kun davom etgan ushbu sinovdan so'ng muridning oliftaligidan asar ham qolmaydi, undagi kibr tamoman halok etiladi. Shundan so'ng pir Naxshabiy muridiga g'usl qilishga ruxsat beradi. Nafs qutqusidan xalos bo'lish uchun najot istab kelgan tolib riyozat chekib davo topdi.

Shayxning sifatleri haqida Najmiddin Komilov o'zining "Tasavvuf" kitobida Koshifiyning "Futuvvatnomayi sultoniyy" asariga tayanib ma'lumot berar ekan, haqiqiy pining yetti sifatga ega bo'lishi lozimligini sanaydi. Bular: pining komil ma'rifat egasi bo'lishi, o'tkir zehnli odamshunos bo'lib, muridning qobiliyatini ko'zidan bilib olishi, uchinchidan, yetuk ruhiy-ma'naviy quvvatga ega bo'lib, yo'ldan adashishi mumkin bo'lgan muridni to'g'ri yo'lga

boshlab, unga ma'naviy ko'mak berishi, to'rtinchidan, dunyodagi hech bir moddiyatga ehtiyojmand bo'lmasligi, beshinchidan, ixlosi mustahkam bo'lib, riyo va tamadan yiroq yurishi, oltinchidan, rostgo'y bo'la olishi, doimo haqiqatni so'zlay bilishi, yettinchidan, qalbi shafqat nuriga to'la bo'lib, o'z manfaatidan muridlari va omma manfaatini ustun qo'yishi kabilardan iborat [6,24-25]. "Lison ut-tayr" dostonida Navoiy Hudhudni yuqoridagi sifatlarning barchasida komil sifatida tasvirlagan deyish mumkin. Asarda Hudhudning alohida portret yoki ta'rif-tavsiflariga o'rin berilgani holda, uning boshqa qushlarning savol va shikoyatlariga bergan javoblari va topgan yechimlari misolida uning piri komil ekanidan dalildir.

Husayn Voiz Koshifiy ham: "Agar "murid" so'zining ma'nosi nima deb so'rasalar, javob berib aytki, muridning lug'aviy ma'nosi istovchi, xohlovchi demak. Zero, botinda xohish bo'lmasa, zohirda hech bir amal ko'zga tashlanmagay. Va tariqat tilida "murid" deb nafsning barcha murod (istak)laridan qutulgan odamga aytadilar. Bunday odamning pirning xohishidan o'zga xohishi bo'lmaydi", - deydi [7, 112].

Muridni murshidga chin ma'noda muhtoj va tobe sanash mumkin. Chunki, muridning nafs tarbiyasida murshidga taslimiyat muhimdir. Bu taslimiyat eshutilishidan go'yo qaram va hatto qullikday tuyilsa-da, aslida pirga bu turli ergashish muridning maqsadi sari ildamlayotgan cho'li biyobonda murshid sarbon kabidir. Parning ko'rsatmasiga amal murid amal qilar ekan bu sahroda u sardobaga ham, asl manzilga ham yeta oladi.

Insonning boshqa maxluqotlardan farqi shundaki, unga juz'iy iroda berilgan. Ma'lum ma'noda uning tanlash huquqi bor. Insonning hidoyatga qadam qo'yishi yoxud zalolatga botishi uning bevosita iroda sinovi bilan bog'liq. Chunki hayotning har qanday sinovida insonning shaxsiyatini belgilovchi iroda, ma'lum ma'noda, insonning "men"ligidir. Birovga uni topshirish aslida o'zlikdan kechish. Chin murshid esa sayr-u suluk orqali murid irodasini isloh etadi, toblaydi. Natijada Haqqa suyanib har qanday haqsizliklarga qarshi tura oladigan yangi va erkin ma'naviy "men" dunyoga keladi. Shu ma'noda murshidlik mas'uliyati juda og'ir bo'lgan. Murshid tanlashda adashish murid uchun halokat sanalganligi bois tanlovda

juda ehtiyot bo'lish kerakligi qayta-qayta ta'kidlangan. Murshid turli fitna, ixtiloflarga sababchi bo'lmasligi, murid ham ta'lim jarayonida islom odob-arkonidan aslo yiroqlashmasligi lozim. Hadisshunoslikdagi roviylar sanadi kabi murshidlarning ham to'rt xalifa orqali Muhammad (s.a.v.)ga borib ulanadigan uzilmas silsilasi bor. Xalifalik ijzasiga erishmaganlar ushbu zanjirga nisbat berilmagan va tariqatda komil murshid deya tan olinmagan.

Oliy maqsad bo'lmish Haqqa yetishishdagi yo'l qorong'u bo'lsa, pir mash'al vazifasini o'tagan, yo'l kimsasiz makon bo'lsa, ustoz mayoq bo'lgan. Shunday ekan Pir-ustozni komil inson deyish mumkin. Bu uning qusursiz yaralgani anglamini bermaydi, aksincha qusurlarini yengib ularni zohiri va botinidan quva olgan inson ekanining anglatadi. Xalq ham bekorga "Ustozi yo'qning ustoz shaytondir", degan xulosaga kelmagan. Navoiy barcha asarlarida, xususan, "Lison ut-tayr"da bu xususida qat'iy hukmni bildiradi:

*"Har jamoatqaki yo'qtur peshvo,
Yo'lg'a ermastur qadam qo'ymoq ravo.
...Nafsdin har kimgakim bu biym erur,
Chora murshid ollida taslim erur.
Bo'yla illatlarg'a murshiddur tabib,
Kim xaloyiq pir derlar, ey habib" [5, 136.]*

Pirning irshodisiz bu sayr-u suluk nihoyasiga yetishi mushkulligi barcha tasavvufiy asarlarda ta'kidlab o'tilgan. Va bu holat faqatgina tasavvufiy qarashlardagina aks etmasligi istab, bugungi kun muallim-u murabbiylariga ham shu daraja e'zoz va ishonch bilan qaralganda faqatgina ajdodlarga mos avlod yoki o'tmishini unutmagan farzand emas, kelajakka yuksak ma'naviy qalqon bilan shaxdam ildamlayotgan vorislar bo'la olar edik.

Xulosa qilib aytganda, haqiqiy murshid yoki shayxlar, ilmda qayta-qayta ta'kidlanganidek, misni tillo qilguvchi zotlardir. Ular tom ma'noda odamshunoslar bo'lib, har bir muridning fe'l-atvori, ma'naviy darajasini yaxshi bilishgan va shunga ko'ra unga o'ziga xos topshiriqlar berishgan. Ular muridlariga mo'minlik sharafini anglatish bilan ilm poydevorini qo'yishgan. Zero, "Mo'minning farosatidan ehtiyot bo'ling, chunki u Alloh nuri bilan nazar qiladi", deyiladi hadisi sharifda. Qolgan barcha dunyoviy ilm va muomalalarda shu asosga tayaniladiki, bu balki adashishlar, nadomatlar oldi bir qadar to'siladi.

XX asr boshida jadid bobolarimizni o'rtagan quyidagi alamli hayqiriq bugun butun insoniyatning fojiasidir: "Al-hosil tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir". "Al-isloh" deyishga majbur qilayotgan bugungi ta'lim-tarbiyada muallim-u mudarrislarining o'rni beqiyos. Najotga eltuvchi Ustozlarni yetishtirishda komil murshidlardagi ibratli jihatlarni o'rganish va o'zlashtirish, tariqatdagi ta'lim-tarbiya usullarini puxta bilish hamda kunimizdagi ta'lim dasturlarini yaratishda ulardan unumli foydalanish istiqbol uchun juda muhim va zarurdir. Zero, tasavvuf – ruhshunoslikdir. Ma'naviy majruhlik bugun har davrdagidan ham ko'proq odamzodni o'zligidan uzoqlashtirmoqda. Eng zo'r psixologlarni izlab, ruhimizga xotirjamlik axtarmoqdamiz. Ammo o'tmishimizga yaxshiroq nazar solishimiz va undan ibrat olishimiz lozimki, shunda ko'ngillarda uyg'oqlik bo'lib, rabboniy ma'rifatlar, rahmoniy latofatlar eshigi ochiladi. Bu borada Sharq tasavvuf adabiyotining ulkan namoyandalari – mutafakkir shoirlar Jaloliddin Rumiy va Alisher Navoiyning biz nazardan o'tkazgan adabiy-falsafiy durdonalari muhim badiiy-poetik ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar

1. Юсуф сураси. /<https://www.islamonline.uz/quran/content-?id=4998>.
2. Абдурахмон Г. Яссавий "Фақрнома"си. – Тошкент: "Наврўз" нашриёти, 2014. – Б. 217-228.
3. Жалолиддин Румий. Маснавийи маънавий (Жамол Камол таржимаси). – Тошкент: МЕРИЮС, 2010.
4. Фарҳод ва Ширин. МАТ. 8-том. – Тошкент: Фан, 1996.
5. Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. МАТ. 12-том. – Тошкент: Фан, 1996.
6. Комилов Н. Тасаввуф. Биринчи китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1996. – Б. 24-25.
7. Ҳусайн Воиз Кошифий. Футувватномаи султоний. Аҳлоқи муҳсиний. – Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2011. – Б. 376.